



O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONA VA O'QITUVCHI BOSHQARUVIDAGI HAMKORLIK

Boboqulova D.M.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: o'quvchi, tadbirkor, mexanizm, rivojlantirish, o'qituvchi, hamkorlik, iqtisodiy.

Ключевые слова: студент, предприниматель, механизм, развитие, учитель, кооперация, экономика.

Key words: student, entrepreneur, mechanism, development, teacher, cooperation, economic.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti ko'pgina olimlar tomonidan alohida mavzu sifatida o'rganilgan bo'lib, bu tushuncha yoshlarni yoshligidanoq iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirishni maqsadga muvofiq tushuncha sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasining moddiy va ma'naviy o'sishi borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o'quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar. Ta'lim jarayoniga kiritilgan iqtisodiy bilim, tejamkorlik asoslari fanlarini o'qitishda, darsdan tashqari turili tarbiyaviy tadbirlarda ham o'quvchilarni iqtisodiyotimizga oid ko'plab masalalar bilan tanishtirish mumkin. Shu bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tejamkorlik, tadbirkorlik hamda uning o'rni haqida zamonaviy bilimlarni berish va ayni jarayonda mazkur ishlarning ta'sirchanligini oshirish lozimligi haqida ham o'rganish olib borganlar.

Boshlang'ich ta'limda o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga tejamkorlik, tadbirkorlik va iqtisodiy tushunchalarning mohiyatini singdirish lozim. Bu holat nafaqat dars jarayonida, balki darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, har xil o'yinlarni o'tkazish jarayonida, o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Shu bois ham mehnat tarbiyasi haqida o'rganishlarimizni bildirib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirishi, ularni jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida mehnat qilishga amaliy tayyorlash lozim.



Buning uchun bolalarda mehnatga muhabbat, mehnat ahliga chuqur hurmat hislarini tarbiyalash kerak. O'quvchilarga turli darslar jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda, oiladagi o'zaro munosabatlarda mehnat tarbiyasi berish mumkin. Ayniqsa, texnologiya darsining mehnat tarbiyasi berishdagi o'rni katta. Mehnat, mehnatkashlar haqida suhbatlar, munozaralar, mehnat faxriylari, tadbirkorlar va ilg'or ish bilarmenlar bilan uchrashuvlar, maktablarda o'tkaziladigan hosil bayramlari, navro'z bayrami va boshqalar orqali ham mehnat tarbiyasi berish mumkin. Ma'lumki, qadimdan ota-bobolarimizning kundalik hayotiga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib borgan. Shu bois ham ular yashash uchun kurashgan. Bunda ota bobolarimiz o'zlaridagi tabiiy ehtiyojni tabiat qonunlari doirasida qondirib borish jarayonlarida ayrim to'siqlarga duch kelganlar.

Masalan, bunday to'siqlar qatoriga tabiatda yuz berib turadigan tabiiy ofatlar hamda hayvonlarning mavsumga qarab o'z joylarini o'zgartirib turishlari ularni yashash uchun kurashishga undagan. Shuning uchun ham ularda tabiiy ehtiyoj bilan bir qatorda moddiy ehtiyojlari kuchayib borganligi sababli ham o'zlari uchun kerakli bo'lgan ozuqalarni g'amlash, saqlash, kerakli joylarga olib borish, tabiiy ofatlardan saqlanish vositalarini ixtiro qilgan. Ular sovuqni saqlanishlar uchun issiq pana joylar izlashi natijasida, g'orlar, uylar, yasaganlar. Keyinchalik esa, uni isitish vositasi zarurligini sezib, quyosh taftini qumsaganlar. Xom ozuqalarini pishirishga bo'lgan ehtiyojlari kuchaygan, natijada, olov kashf qilgan.

Yuqoridagi tarbiyaga oid tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirishda hamda ijtimoiy buyurtmani to'laqonli amalga oshirish nuqtai nazaridan bir qator olimlarimiz yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga o'zlarining benazir hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ularning asarlarini o'zganib, mavzuga oid yangi xulosalarga kelish mumkin. Masalan, o'quvchi pulning vazifasini, sotib olayotgan mahsulot narxi va ularga bog'liq jihatlarni aniq tasavvur qila olishi lozim bo'ladi. Mazkur jarayonlarda boshlang'ich sinf o'quvchisi tejamkorlikni o'rganadi, kuzatadi, eng asosiysi tahlil qiladi. Natijada iqtisodiy tushunchalarni yuksaltirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati, uning rivoji hamda taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish nima uchun kerak? degan savolga hech ikkilanmasdan shunday javob berish mumkin bo'ladi. ...Bugungi kun, kechagi kun bilan shunisi bilan farq qiladiki, biz bozor iqtisodiyotiga asosiy davrda yashayapmiz. Ularga tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berishda, iqtisodiy qonunlarni o'rgatib borish kerak.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berishda xalqimizning milliy-ma'naviy merosidan keng va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Har bir davrda tadbirkorlik, tejamkorlik



va iqtisodiy tarbiya berish muhim ahloqiy tarbiya hisoblangani kabi, bu masala bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalari kundalik hayotda hamisha takrorlanib turadi. Tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy qonunlar kishilarning faoliyati, xatti-harakatlari tufayli tarkib topadi. Shu bois kishilar tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya talablarini hisobga olib, ulardan foydalanishlari lozim bo'ladi.

Iqtisodiy qonunlardan bilib, samarali foydalanish barchaga katta foyda keltirishi o'rganilgan hamda olimlar tomonidan o'rganishlarda o'z aksini topgan. Biroq, iqtisodiyot qonunlari boshqa hech bir tabiat qonunlariga muvofiq emas. Aksincha, farqlidir. Bunday deyishimizga asosiy sabab shundaki, kishilik jamiyati mavjud bo'lganda iqtisodiyot qonunlari paydo bo'ladi va amal qiladi, tabiat qonunlari esa doimiydir.

Tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya tushunchalari kundalik hayotda hamisha takrorlanib turadi. Hamda bu ilmiy nazariy tushuncha hisoblanadi. Mazkur tushunchaga oid kategoriyalar ilmiy tushuncha bo'lib, ilmiy fikrlash mahsulidir. Masalan, ishchi kuchi, bozor, iqtisodiy muvozanat, moliya, kredit shular jumlasidan. Iqtisodiy qonunlar bilan tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tushuncha kategoriyalarning farqli jihatlari shundaki, birinchisida iqtisodiy tarmoqlarning turli sohalari va ular orasidagi bog'liqlik o'rganilsa, ikkinchisida ular orasidagi bog'liqlik tashqi omillarga mos ravshida o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi. Umuman, bu o'rganishlarda ikkinchi omilda mazkur tushunchalar bir necha mazmun kasb ham etadi.

Tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya kategoriyasi ilmiy tushunchalari iqtisodiy hodisalarning mazmunini bildiradi. Masalan, pul, bank kabi tushunchalar orqali bank, pul, talab qonuni, talab hajmi, umuman ushbu sohaga oid iqtisodiy tushunchalarni bilib olamiz. Demak, ularni bilamasdan iqtisodiy qonunning mazmunini tushunish, tushuntirish va uning mohiyatini bilish qiyin.

Yuqoridagi fikrlarni yana davom ettirsak. O'rganilayotgan ilmiy ish bo'yicha ko'plab ilmiy qarashlar, pedagogik fikrlar to'plangan. Ularda esa bir birini to'ldiruvchi fikrlar mavjud.

Masalan, talab qonuni mohiyatini bilib olishimiz uchun narx va talab tushunchalari mazmunini bilishimiz zarur. Xuddi shuningdek qiymat qonunini tushunish uchun tovar, pul, qiymat, narx, mehnat kabi tushunchalarning mazmuni bilan tanish bo'lishimiz kerak.

Umuman olganda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya qonunlari bir-birini to'ldiradi. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, iqtisodiy qonunlarni o'rgatish orqali biz yoshlarning bajarayotgan ishlari samarali bo'lishga, tejashga, moddiy imkoniyatlardan avaylab foydalanishga rag'batlantiramiz.



O‘zbekiston Respublikasida har yili 20 avgust – “Tadbirkorlar kuni” deb belgilangan.

Aynan ushbu kunda emas, balki hamisha ularning huquqlari e’tirof etiladi va bunga amal qilib kelinmoqda. Bu esa yurtimizda kun sayin tadbirkorlik qilish istagida bo‘layotgan yurtdoshlarimizning soni ortib borishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga xorijlik fuqarolarning ham yurtimizda faoliyat yuritishni istayotganliklari ham yurtimizda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning nechog‘lik katta ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-mafkuraviy taraqqiyotining hozirgi bosqichida tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tushunchani shakllantirishda oila bilan hamkorlik texnologiyasini yo‘lga qo‘yishda bozor qonunlariga mos holda kishilarda mulkdorlik madaniyatini shakllantirish, aholida iqtisodiy bilimlar va ongning qanchalik rivojlanganligi bilan sarhisob qilinadi.

O‘quvchilarda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berishda xalqimizning milliy-ma’naviy merosidan keng va samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Har bir davrda tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiya berish muhim ahloqiy tarbiya hisoblangani kabi, bu masala bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning ahamiyatini yanada oshirib, uning samarasi tadbirkorlik, zaxiralardan tejamli foydalanish, jamg‘arma krediti bilan ishlash, pinhoniya iqtisodiyotdan saqlanish va soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirish, uy xo‘jaligini yuritishda hisob-kitob, yangiliklarga intilish va jamiyat iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning amaliyotga tadbiiq etilishi, aholida iqtisodiy madaniyatning shakllanganligi va iqtisodiy bilimlarning qanchalik o‘zlashtirilganligiga bog‘liq deb hisoblanadi. Mazkur qarashlar yigirmanchi asrda yashab o‘tgan rus olimlari tomonidan ham o‘rganilgan hamda amaliyotga joriy etish nazariyasi darsliklarga kiritilgan. Mazkur darsliklarda ko‘rsatilishicha, milliy yoki xalqaro iqtisodiyotning rivoji inson resursi va omiliga bog‘liq, deb qarash mumkin.

O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan mustahkam aloqasi tufayli aholida bozor munosabatlariga xos fikrlash tarzi yanada shakllanib bormoqda. Mazkur jarayonda bir qancha hisobga olinishi kerak bo‘lgan jihatlari ham mavjud. Bu tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tushunchalarini o‘z sharoitiga mos holda isloh qilishni talab qiladi, negaki ularni rivojlantirish ko‘pgina hollarda yoshlarimizning iqtisodiy bilim saviyasining yuksalish darajasiga ham bog‘liqdir. Bozor munosabatlari xalqimiz va vatanimiz uchun butunlay yangi tushunchalar emasdi. Osiyo va Yevropaning savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan o‘zbek zamini asrlar osha Sharq va G‘arb o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib keldi. Bu esa oson ish emasdi.



Zero, kommunistik mafkura hukmronlik qilgan sovet davrida 70 yil mobaynida xalqimiz haqiqiy bozor qadriyatlaridan butunlay uzoqlashtirilgan, odamlardagi bozor munosabatlariga xos tashabbuskorlik, tejamkorlik, izlanuvchanlik va tadbirkorlik soʻndirilgan, boqimandalik kayfiyati chuqurlashib ketgan edi va iqtisodiy tarbiyaga yetarlicha eʼtibor berilmas, iqtisod fanining asoslari maktablarda yetarlicha oʻrganilmasdi.

Ammo endilikda Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining mustaqil rivojlanish yoʻlini tanlab olgach, iqtisodiy tushuncha masalasi eng muhim, dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga yetish uchun biz iqtisodiyotning rivojlanishini taʼminlovchi shaxslar, kadrlarga ega boʻlishimiz zarur. Iqtisod ilmidan boxabar boʻlgan kishilargina har doim qiladigan sarf-xarajatlarining samarasini oldindan hisob-kitob qiladilar, tadbirkorlik asosida ish yuritadilar, biznesni toʻgʻri tanlaydilar, qachon, qayerda, nima va qancha ishlab chiqarishni yaxshi biladilar.

Pirovard natijada, kelajak taraqqiyoti, jamiyat barqarorligi va oila farovonligi taʼminlanadi. Biroq har qanday inson ham birdaniga iqtisodiy fikrlovchi, ishbilarmon yoki tadbirkor boʻlib qolmaydi. Inson farovon hayot kechirishi uchun jamiyat tomonidan tan olingan mehnatni bajarishi, cheklangan zaxiralardan samarali foydalanish, topgan daromadini oqilona taqsimlashni bilishi kerak. Yoshlarda bozor iqtisodiyotiga xos bilim, malaka, koʻnikma va kompetensiyalarni shakllantirish soʻzsiz iqtisodiy tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida oʻz tasdigʻini topgan. Misol uchun, Amerikada boʻlajak biznesmenlar uchun turli maxsus mashgʻulotlar mavjud. Maktab yoshidagi bolalar uchun amaliy iqtisod va biznes boʻyicha eng dongʻi ketgan dasturlarning mashhurlarini “Junior Achivment” korporatsiyasi tuzgan.

Bu dasturlar oʻz ichiga kompyuter oʻyinlari, darsliklar, amaliy mashgʻulotlarni qamrab olgan. Ayniqsa, maktab oʻquvchilarining oʻzlari haqiqiy kompaniyalarni tuzib, real biznes bilan shugʻullanishlarini koʻrish juda qiziq.

Dasturning asosiy maqsadi yoshlarda tadbirkorlikka qiziqishni uygʻotish, iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish emas, balki biznesga alohida munosabat paydo qilish. Bu munosabatning oʻzagi - halollik va sofdillik, faqat oʻz ehtiyojini oʻylabgina qolmay, balki oʻzgalarning manfaatlarini ham oʻylash.

Iqtisodiy taʼlim-tarbiya uzluksiz jarayon hisoblanadi. Qadimdan “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, degan hikmat bejiz aytilmagan. Shu sababli iqtisoiy rivojlanishlar sari odimlayotgan navqiron mamlakatimizda ham yosh avlodga iqtisodiy taʼlim-tarbiya berish masalasini tizimli tashkil qilish va ushbu vazifalarni amalga oshirishda qator tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bizningcha, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning uzviyliyini ta'minlash bugungi kunning asosiy mavzusiga aylanishi kerak. Mazkur jarayonda birinchi navbatda iqtisodiy fikrlash, iqtisodiy tushunchalar, dastavval bog'cha-maktablarda, keyinchalik esa tizimli ravishda oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish;
- mahalla, o'zini-o'zi boshqarish organlari yordamida iqtisodiy tafakkur shakllanishiga xizmat qiluvchi amaliy tadbirlarni tashkil qilish, ular yordamida har bir oilaga kirib borish, suhbatlar tashkil qilish, iqtisodiy madaniyatni targ'ib qiluvchi shior va tashabbuslar bilan chiqish, mahallalarda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;
- umumta'lim maktablarida iqtisodiy ta'lim berishni yanada kuchaytirish, amalga oshirilayotgan islohotlarni keng va teran anglagan holda yoshlarni iqtisodiy mavzularni qamrab oluvchi turli to'garaklarga jalb etish, ular o'rtasida iqtisodiy bilimlarni mustahkamlovchi tadbirlar, musobaqa va tanlovlarni ko'paytirish;
- maktab ta'lim muassasalarida "Iqtisodiy bilim asoslari" faniga xonadon moliyasini o'rgatuvchi mavzuni kiritish;
- davriy nashrlarda iqtisodiy madaniyatni targ'ib etuvchi maxsus rukn tashkil etish, eng yaxshi maqola va asarlar mualliflari uchun tanlov o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida maxsus dasturlar yaratish va ularni keng ommaga yetkazish;
- iqtisodiy savodxonlikka xizmat qiluvchi darslik, o'quv qo'llanma, risolalar, turli adabiyotlarni yaratishni rag'batlantirish va ta'sirchanligini oshirib borish;
- ta'limda iqtisodiy savodxonlikni ta'minlovchi motivasion, aqliy, irodaviy, hissiy va amaliy omillarni qo'llashni yo'lga qo'yish kerak. XXI asr - intellektual asr, deb e'tirof etilishi ta'limda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bu o'z navbatida iqtisodiy sohadagi bilimlarni berishda har tomonlama chuqur mushohada qilish va takomillashtirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Bozor munosabatlari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga xos turmush tarzini yaratishimiz, cheklangan zaxiralardan tejamli va unumli foydalanishimizda yangicha zamonaviy iqtisodiy fikrlashga o'rganishimiz foydadan holi emas.

Bugungi kunda iqtisodiy qonunlar o'zining yangi talablarini shu jamiyatda yashayotgan har bir inson oldiga qo'ymoqda.

Shu bois iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, ularni uyg'unlashtirishgan holda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyat va an'analarimiz bilan boyitish bilan birga, zamonaviy cho'qqilarini ham zabt etish lozim.



Yuqoridagi fikrlarga e'tiborni qaratidigan bo'lsak, Mustaqil O'zbekistonda mazkur ishlar yo'lga qo'yilgan va samarali amalga oshirish uchun tizimli chora-tadbirlar belgilab olingan.

Buni biz qabul qilinayotgan turli qonunlar, qarorlar va boshqa turli me'yoriy-huquqiy hujjatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlagan edi". "Avvalgi uchrashuvlarda ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, AKTni joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi".

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'tiladigan barcha fanlar zahirida iqtisodiy tushunchalarni o'quvchi ongiga singdirish orqali ularni hayotga tarbiyalab borish yo'lga qo'yilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi ongiga singdirilishi lozim bo'lgan tushunchalar nafaqat dars jarayonida balki, darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ham har xil o'yinlarni o'tkazish jarayonida singdirib boriladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlarimizning komil inson bo'lib voyaga yetishishlarida tadbirkorlik, tejamkorlik, iqtisodiy bilimlarni egallashlari juda muhimdir. bu esa albatta barpo etilgan shonli davlatimiz, uning kelajagi hamda ravnaqiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Tejamkorlik g'oyalari ilgari surilgan xalq tarixiy va milliy merosi bilan tanishib chiqamiz. Xalqning orzu-intilishlari, urf-odatlarini, an'analari, tarbiya xususiyatlari shakillangan og'zaki ijodi namunalarida tejamkorlikka charlovchi fikrlari, qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Misol qilib xalq og'zaki ijodining ixcham va mazmundor, ta'sirchan turi maqollarni keltirishimiz mumkin.

Masalan: "Tejamli ish - bejog'lik", "Oshni tejasang oshga, nonni tejasang nonga", "Ozni beja, ko'pni teja", "Kam-kam yesang doim yersan, ko'p-ko'p yesang neni yersan", "Yig'sang ko'p, sochsang oz", "Ota mulki bo'lsa ham ayab ye", "Nimani xor qilsang - o'shanga zor bo'lasan" kabi maqollardan tejamkorlik g'oyalari mujassamlashgan. Bu maqollarni o'qib o'rganish davomida o'quvchilar tejamkorlik sirlari, isrofgarchillika yo'l quymaslik, har bir narsaning qadriga yetish, asrab avaylash lozimligi haqida bilim va tushunchaga ega bo'ladi.

Rivoyatlar - xalq og'zaki ijodining tarbiya beruvchi noyob turlaridan biridir. Rivoyatlardan bola xalqning turmush tarzi, milliy udumlar, ta'lim-tarbiya an'analari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Rivoyatlarda ham farzandga tejamkorlik tarbiyasini singdiruvchi g'oyalar mavjud.



Misol qilib, “Nonning ushug‘i ham non”, “Bir shamni o‘chirib, boshqasini yoqdi” kabi rivoyatlarini keltirishimiz mumkin. Bu rivoyatlar orqali ham bola tejamkorlik qirralarni o‘rganib oladi.

Rivoyatlardagi voqea-hodisani bola o‘qib, o‘sha xodisani tasavvur qiladi.

Aytaylik, “Nonning ushug‘i ham non” rivoyatida boy-badavlat shoh o‘z mol dunyo, boyligini tejamkorlikka rioya qilganligi, isrofgarchilikka yo‘l quymaganligi tufayli bolada katta taassurot qoldiradi. “Bir shamni o‘chirib boshqasini yoqdi” rivoyatida esa bolaga nafaqat o‘z shaxsiy narsalarni, balki jamoa, davlat mulkini tejab, asrash haqida ma‘lumot beriladi. Bizga ma‘lumki, iqtisodga oid ehtiyojlar va ularga mos tovarlar doimo inson uchun qiziqarli manba bo‘lgan va unga erishish yo‘llari doimo inson tafakkurining birinchi bosqichlaridan o‘rin olgan.

Iqtisod ilk bobolar hayotidan boshlab, antik adabiyotlar Platon, Aristotel qadimgi Misr, Xitoy, Hind va Markaziy Osiyo olimlarining asarlaridan ham o‘rin olgan.

Bunday buyuk insonlar o‘z asarlarida inson hayoti uchun zarur bo‘lgan xom ashyo buyumlari ishlab chiqarilgan tavarlar naqadar zarur ekanligini ko‘rsatibgina qolmasdan uni qo‘lga kiritish, undan foydalanish, ularga sayqal berib va kelgusi avlodga yetkazish texnologiyalarini ishlab chiqqanlar.

Shu sababli, eng avvalo, insonning o‘zini uning umri, kuchi, aql-zakovati, iste‘dodi, kayfiyatini, mehnatga qobiliyatini asrash umrining uzaytirish tejamkorlikning eng hususiyatli tomoni hisoblanadi.

Vaqt - inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Uni faqat dunyoni o‘rganish va o‘zgartirishga, shaxsiy manfaati va el-yurt xizmatiga, mehnat samadorligini oshirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga sarf etish xususiyati har bir kishida shakllanishi zarur bo‘lgan ulug‘vor fazilatdir.

Yoshlarga daromad hajmini belgilash va xarajatning me‘yorini barqarorlashtirish, boshqacha aytganda, ne‘mat yaratish va uni tasarruf etish rejasini ishlab chiqish va unga qat‘iy amal qilish ko‘nikmasi singdirilishi lozim.

Ishni topshirish bilan cheklanmay, bola uni qanday bajarayotganini nazorat qilib turish, lozim bo‘lsa, maslahat, ko‘mak berishi, g‘ayratbaxsh so‘zlar aytib ruhlantirib turishi maqsadga muvofiq.

Bola mustaqil topshiriqni bajarish jarayonida rejadagi ishni uddalash uchun sarf etiladigan xom ashyo, mablag‘, vaqt, kuch, kayfiyat, hajmini aniqlash, kerakli uskunalarni tayyorlash, sozlash malakalari takomillashadi.

Matbuot, radio, televideniye xabarlari, o‘qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan berilgan tejamkorlikka oid ma‘lumotlar, ota-onalar hamda keksalarning bu to‘g‘ridagi maslahatlari, tanbehlari ham bolada mazkur tushunchaning kengayishiga ijobiy ta‘sir etadi.

O‘qitishning yo‘naltirilganligi, avvalo o‘qitilayotgan predmetning qanday fanligi, uning ahamiyati va jamiyat manfaatlari yo‘lida hizmat qilish imkoniyatlari,



o'qitishning nazariy asoslari darajasi va o'qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarliklari bilan belgilanadi. O'qitish metodikasi o'rganilayotgan fanning nazariy mohiyatini o'quvchiga yetkazish mumkin bo'lgan pedagogik usullarni bartaraf etishi kerak, o'qitish va tarbiyalash metodlari haqidagi ta'lim sifatida metodika-ta'lim va o'qitishning dars berish usullari va shakllarining, mazmuni va masalalarining butun to'plamini ishlab chiquvchi didaktika umumiy nazariyasining bir qismidan iborat. Maktab sharoitida iqtisodiy tarbiyaning xilma-xil vazifalari bir necha fan bo'yicha darslarda amalga oshiriladi. Masalan, matematika, o'quvchilarga iqtisodiy rivojlanish ichki kuchlarga e'tibor berishni o'rgatadi.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'tiladigan barcha fanlar zahirida iqtisodiy tushunchalarni o'quvchi ongiga singdirish orqali ularni hayotga tarbiyalab borish yo'lga qo'yilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi ongiga singdirilishi lozim bo'lgan tushunchalar nafaqat dars jarayonida balki, darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ham har xil o'yinlarni o'tkazish jarayonida singdirib boriladi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchilarda iqtisodiy tarbiyani yuksaltirishda mehnatning o'ziga xos ta'sir etish kuchi bor. Shu bois o'quvchida iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda mehnat tarbiyasi bilan integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Mehnat tarbiyasi bolalarda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirishi, ularni jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida mehnat qilishga amaliy tayyorlash lozim. Buning uchun bolalarda mehnatga muhabbat, mehnat ahliga chuqur hurmat hislarini tarbiyalash kerak. O'quvchilarga turli darslar jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda mehnat tarbiyasi berish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy tarbiyani yo'lga qo'yish 1 sinfdan boshlab matematika darslarida amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki matematika darslari orqali hisoblash jarayonlarida iqtisodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Masalan: 2 sinf matematika darsida hisoblash orqali o'quvchilarda iqtisodiy fikrlashni o'stirish. Dars jarayonida o'quvchilar diqqatini, fikrlash qobiliyatini o'stirish barobarida ularni tejamkor bo'lishga va tadbirkorlikka ham o'rgatib boriladi. Ona tabiatni asrash, avaylash lozimligiga alohida e'tibor qaratiladi. Undan tashqari maktabda olgan bilimlarini amalda qo'llashga yo'naltiriladi.

Bugungi kunga qadar ko'plab olimlar tomonidan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda milliy-ma'naviy qadriyatlar muhim omil ekanligi e'tirof etilmoqda.

Yoshlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan bir qator tadbirlar hamda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bundan ko'zlangan maqsad, yoshlarga iqtisodiy tarbiya berish orqali gullab yashnab kelayotgan yurtimizning iqtisodiyotini yanada yuksaltirish va uning taraqqiyotiga hissa qo'shishdan iborat.



Demakki, yuqorida ta'kidlayotganimiz iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar bir-birini to'ldiradi. Iqtisodiy qonunlarni o'rgatish orqali biz yoshlarni jamiyatda o'z o'rnini topishga, qilayotgan sa'yi-harakatlari samarali bo'lishga, tejjashga, avaylab-asrashga, o'rgatib isrofgarchilikka yo'l qo'yishning oldi olinadi.

Iqtisodiy bilimlar har doim kishilik jamiyatining rivojiga hissa qo'shib kelganligi sababli iqtisodiy tarbiyaga ehtiyoj bor. Bunda ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz ishtirok etishi bolaning yetuk shaxs bo'lib yetishishiga asosiy turtki bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-T.O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari.-T.O'zbekistn, 1993.
3. Boboqulova D.M., Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiya tushunchalarini shakllantirishda sharq mutafakkirlari tarixiy merosidan foydalanishning o'rni va ahamiyati. *Образованиеи наука в XI веке* (ISSN 2782-4365) №A3-20220414-2 от 14.04.2022. –С.79-88.
4. Xudayqulov X.J.Ta'lim jarayonida yangi pedagogi texnologiyalardan foydalanish. – T.: TTESI, 2004.-B. 156.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlanishining beshta ustuvor vazifasi "Harakatlar strategiyasi".-T, O'zbekiston , 2017.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlan-ich-sinf-uvchilarida-tezhamkorlik-va-i-tisodiy-tarbiyani-shakllantirishning-pedagogik-asoslari>.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola o'quvchilarda tadbirkorlik mexanizmini rivojlantirishda ota-ona va o'qituvchi boshqaruvidagi hamkorlik haqida yozilgan. Ko'hna Sharq mutafakkirlari asarlarida ham iqtisodiy tarbiya mazmuni hamisha yoritib kelingan. Xorazmiy, Forobiy, ibn Sino asarlarida iqtisodiy tarbiya va uni bolalarga o'rgatish haqidagi muhim fikrlarni ko'rish mumkin. Bolalarni ishbilarmonlik, tejamkorlikka o'rgatish oiladan boshlanadi. O'quvchilar maktabda turli fanlarni o'qish jarayonida ham iqtisodiy bilimlarga ega bo'ladilar.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о сотрудничестве родителей и учителей в развитии предпринимательства у учащихся. Содержание экономического образования всегда освещалось в трудах древневосточных мыслителей. Важные идеи об экономическом образовании и преподавании его детям можно увидеть в трудах Хорезми, Фараби, Ибн Сины. Воспитание детей деловому складу ума и бережливости начинается с семьи. Студенты приобретают экономические знания, изучая различные предметы в школе.

SUMMARY

This article is written about cooperation between parents and teachers in the development of entrepreneurship in students. The content of economic education has always been highlighted in the works of ancient Eastern thinkers. Important ideas about economic education and its teaching to children can be seen in the works of Khorezmi, Farabi, Ibn Sina. Teaching children to be business-minded and thrifty begins with the family. Students acquire economic knowledge while studying various subjects at school.